

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “TUSHGANIDA
BOSHINGGA QAYG’U...” SHE’RI TAHLILI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakili, o‘zining samimiy ruhga, falsafiy teranlikka ega asarlari bilan butun dunyoga tanilgan ijodkordir. U O‘zbekiston badiiy-adabiy muhitiga singib ketgan o‘zbek adabiyotining nozik xususiyatlarini eng chuqur qatlamlarigacha kirib borib anglagan va betakror uslub bilan ishoda eta olgan rusiyazon shoir sanaladi. Faynberg she‘riyatida samimiyat, hijron, ichki iztirob, insoniy dard, Vatan, muhabbat va hayotning o‘tkinchiligi kabi mavzular teran mushohada etiladi. Faynberg ijodiyoti avvalambor samimiyligi bilan farqli. Uning she‘rlarida soxta balandparvoqlik, ortiqcha bezakdorlikdan ko‘ra ichki kechinmalar, qalb iztiroblari va insoniy tuyg‘ularning tabiiy ifodasi ustunlik qiladi. Shoir uchun she‘riyat shunchaki hayot tarzi yoki san‘atning bir yo‘nalishi emas, inson qalbining eng katta ehtiyoji, ruhiy komillikka eltuvchi yo‘l, yurakning o‘zini anglab yetish vositasidir. U yozgan har bir satrda insonning ichki dunyosi, ko‘ngil nozikligi, dard va sog‘inchni qalbdan titrab-titrab chiqadigan ohanglari mujassam. Ayniqsa, u ijokorning san‘at qarishisidagi mas‘uliyati, she‘rning haqiqiy manbai, tuyg‘ular masalasiga alohida yondashadi. Adabiyot tarixida ko‘plab arboblarning she‘riyatning asl mohiyati nima ekanligi to‘g‘risida fikr yuritganlar. Kimdirlar she‘rni ilhom mevasi desa, kimdirlar uni hayot tajribasi asosida yuzaga kelgan deb o‘ylagan. Biroq Faynberg nazarida she‘riyat markazida yurak turadi. U chinakam she‘r tashqi qofiya-yu shakldan emas, balki qalbning titroq haroratidan tug‘ilgan. Agar yurak iztirob cheksa, sog‘insa, sevsa she‘r dunyoga keladi. Agar qalbdagi bu hislar sovusa, so‘nsa, eng zo‘r qofiya ham unga qayta hayot baxsh eta olmaydi. Faynberg she‘riy qarashlari o‘zida umuminsoniy qarashlarni ham jamlagan. U insonni millat, til yoki hudud bilan chegaralab qo‘ymaydi. Uning uchum dard ham, sog‘inch ham, muhabbat ham umumiy tuyg‘ular. Shoir ana shu umumiylikni o‘z she‘riyatida yoritgan ekan, kitobxonni o‘z ichki dunyosiga nazar tashlashga undaydi. Uning ijodiyotida ruhan poklanish, qalb harorati va so‘zning samimiyligi ustuvor qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. “Tushganida boshingga qayg‘u...” misralari bilan boshlanuvchi she‘r ham aynan yuqorida aytilgan mavzu, masala va xususiyatlarni o‘zida jamlagan asardir. Mazkur maqola Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she‘ri tahliliga bag‘ishlangan.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is a bright representative of 20th-century Uzbek literature, a creator known throughout the world for his sincere and philosophically profound works. He is considered a Russian-speaking poet who has penetrated the deepest layers of the subtle features of Uzbek literature, which has become embedded in the artistic and literary environment of Uzbekistan, and who has been able to express them with a unique style. In Feinberg's poetry, themes such as sincerity, exile, inner suffering, human pain, homeland, love and the transience of life are deeply explored. Feinberg's work is distinguished, first of all, by its sincerity. In his poems, inner experiences, heartache and natural expression of human feelings prevail over false grandeur and excessive ornamentation. For the poet, poetry is not just a way of life or a direction in art, but the greatest need of the human soul, the path to spiritual perfection, the path of the heart. is a means of self-realization. Every line he writes embodies the inner world of a person, the tenderness of the soul, the melodies of pain and longing that tremble from the heart. In particular, he takes a special approach to the issue of the poet's responsibility in the development of art, the true source of poetry, and feelings. Many figures in the history of literature have thought about what the true essence of poetry is. Some say that poetry is the fruit of inspiration, while others think that it arises from life experience. However, in Feinberg's view, the heart is at the center of poetry. True poetry is born not from external rhyme and form, but from the trembling warmth of the heart. If the heart suffers, yearns, and loves, poetry is born. If these feelings in the heart cool down and fade, even the best rhyme cannot give it new life. Feinberg's poetic views It also contains universal human views. It does not limit a person to nationality, language or region. For him, pain, longing and love are common feelings. The poet, highlighting this commonality in his poetry, encourages the reader to look into his inner world. In his work, spiritual purification, warmth of heart and sincerity of words are manifested as priority values. The poem, which begins with the lines "When you fall, sorrow will come to you...", is also a work that contains the above-mentioned themes, issues and features. This article is devoted to the analysis of this poem by Alexander Arkadevich Feinberg.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — яркий представитель узбекской литературы XX века, творец, известный во всем мире своими искренними и глубокомысленными произведениями. Он считается русскоязычным поэтом, проникшим в самые глубокие слои тончайших особенностей узбекской литературы, вписавшейся в художественно-литературную среду Узбекистана, и сумевшим выразить их в уникальном стиле. В поэзии Файнберга глубоко исследуются такие темы, как искренность, изгнание, внутренние страдания, человеческая боль, родина, любовь и бренность жизни. Творчество Файнберга отличается, прежде всего, искренностью. В его стихах внутренние переживания, сердечная боль и естественное выражение

человеческих чувств преобладают над ложным величием и излишним орнаментом. Для поэта поэзия — это не просто образ жизни или направление в искусстве, а величайшая потребность человеческой души, путь к духовному совершенству, путь сердца, средство самореализации. Каждая написанная им строка воплощает внутренний мир человека, нежность души, мелодии боли и тоски, трепещущие в сердце. В частности, он занимает особую позицию по вопросу ответственности поэта за развитие искусства, истинного источника поэзии и чувств. Многие деятели истории литературы размышляли о том, в чём заключается истинная сущность поэзии. Одни говорят, что поэзия — это плод вдохновения, другие считают, что она возникает из жизненного опыта. Однако, по мнению Файнберга, в центре поэзии находится сердце. Истинная поэзия рождается не из внешней рифмы и формы, а из трепещущего тепла сердца. Если сердце страдает, тоскует и любит, рождается поэзия. Если эти чувства в сердце остывают и угасают, даже самая лучшая рифма не может дать ей новую жизнь. Поэтические взгляды Файнберга также содержат универсальные человеческие взгляды. Они не ограничивают человека национальностью, языком или регионом. Для него боль, тоска и любовь — это общие чувства. Поэт, подчеркивая эту общность в своем творчестве, призывает читателя заглянуть в его внутренний мир. В его произведениях приоритетными ценностями являются духовное очищение, теплота сердца и искренность слов. Стихотворение, начинающееся строками «Когда упадешь, придет печаль...», также содержит вышеупомянутые темы, проблемы и особенности. Данная статья посвящена анализу этого стихотворения Александра Аркаевича Файнберга.

Kalit so‘zlar: Aleksandr Arkadevich Faynberg, qayg‘u motivi, hijron va sog‘inch, muhabbat talqini, yolg‘izlik holati, qalam obrazi, yurak harorati, tuyg‘u va sovuqlik qarama-qarshiligi, she‘riyat mohiyati, nom-nishon timsoli, badiiy takror , ruhiy iztirob, lirik kechinma, ijod manbai, qalb va so‘z birligi, tuyg‘usiz yurak fojiasi, poetik xulosa.

Keywords: Alexander Arkadevich Feinberg, motif of sadness, longing and longing, interpretation of love, state of loneliness, image of the pen, warmth of the heart, contrast of feeling and coldness, essence of poetry, symbol of name and symbol, artistic repetition, spiritual anguish, lyrical experience, source of creativity, unity of soul and word, tragedy of the heart without feeling, poetic conclusion.

Ключевые слова: Александр Аркаевич Файнберг, мотив печали, тоска и томление, интерпретация любви, состояние одиночества, образ пера, теплота сердца, контраст чувства и холода, сущность поэзии, символ имени и символа, художественное повторение, духовная скорбь, лирический опыт, источник творчества, единство души и слова, трагедия сердца без чувств, поэтическое заключение.

Aleksandr Arkadevich Faynberg mahoratli shoir,o'z asarlari bilan minglab,millionlab kitobxonlar qalbiga chuqur kirib bora olgan adabiyotning ko'zga ko'ringan mashhur vakili.O'z she'rlarida inson qalbini markazga qo'yib,undagi his-tuyg'ularni nozik yo'l bilan yoritgan so'z ustasidir.Ko'plab she'rlari qatorida shoir qalamiga mansub "Tushganida boshingga qayg'u..." satrlari bilan boshlanuvchi she'ri ham keng kitobxonlar ommasi e'tirofiga sazovor bo'lgan.Ushbu she'r tuyg'u va she'riyat o'rtasidagi also uzilmaydigan munosabat mavzusiga bag'ishlab yozilgan.Bu asar davomida Faynberg qayg'u,hijron va muhabbat kabi uchta ruhiy holatni tilga olib,ularning barchasini qalamga bog'laydi.

Tushganida boshingga qayg'u,
Yolg'iz qolasan sho'rpehona.
Qalam bilan yozasan, ushbu
G'am-qayg'udan qolmas nishona.
Tushganida boshingga hijron,
Yorni sog'inasan devona.
Qalam bilan yozasan nolon,
Hijronidan hech qolmas nishona.
Quyosh go'yo bir xira chiroq,
Husnidan nur sochsa jonona.
Qalam bilan yozasan, biroq
Muhabbatdan qolmas nishona.
Shohbaytlar yo'q, lutf-u tashbeh yo'q,
Mo'jiza yuz bermas hech qachon.
Yurak bo'lsa tuyg'usiz, sovuq,
She'riyatdan qolmas nom-nishon.

She'r to'rtta banddan iborat bo'lib,uning har qaysisida alohida ruhiy holat – qayg'u,hijron,muhabbat va so'nggida tuyg'usizlik haqida so'z boradi.Har bir bandda badiiy anafora,ya'ni "Qalam bilan yozasan ..." misrasi takrorlanib ijodiy faoliyatga urg'u berib keladi.Birinchi bandda qayg'u tasvirlanadi: "Tushganida boshingga tashvish Yolg'iz qolasan sho'rpehona..." Bu yerda inson boshiga tushadigan og'ir damlarda yolg'iz qolishi,qalbini o'rtayotgan ichki iztirob bilan yuzma-yuz qolishi ko'rsatilgan."Sho'rpehona" so'zi taqdirning achchiq zarbalari ramzi.Qayg'u,ko'rib turganimizdek,bu yerda ijodning bir manbai sifatida gavdalanirilgan.

Ikkinchi bandda hijron mavzusi ochiladi: "Tushganida boshingga hijron Yorni sog'inasan devona."Yorga bo'lgan sog'inch insonni aqldan ozdirib devonalik darajasigacha olib boradi.Bu holat ham qalam orqali ifodalanadi.Shoir hijronni nafaqat ayriliq,balki ijodiy turtki sifatida ko'rsatadi.Qachonki inson qalbi hijronidan azob cheksa,unda yozishga,ijod qilishga bo'lgan istak-xohish paydo bo'ladi.Bunday vaziyatni o'z qalbi bilan his etib keyin yozgan ijodkorlar asarlari saviyasi va

ta'sirchanligi haqiqatan yuqori bo'ladi.

Uchinchi bandda, muhabbatning ijod uchun ilhom berish xususiyati yoritib beriladi. "Quyosh go'yo bir xira chiroq Husnidan nur sochsa jonona" misralarida quyoshning "xira chiroq" qa o'xshatilishi, bu mubolag'a emas, oshiq bo'lgan bir qalbda kechayotgan holatdir. Chunki bunday holatda oshiq uchun yor husn-jamoli quyosh nuridan ham yorug'roq, nurliroq tuyuladi. Ammo shoir yana o'sha so'zlarini takror aytadi: "Yozasan, biroq muhabbatdan qolmas nishona." Ya'ni muhabbat yolg'iz o'zi yozuvda to'liq aks etmasligi ham mumkin ekan.

So'nggi band she'rning eng muhim g'oyaviy nuqtasi hisoblanadi: "Yurak bo'lsa tuyg'usiz, sovuq, She'riyatdan qolmas nom-nishona." Bu misralar orqali shoir she'rni nshunday xulosalaydi: agar qalbda hech qanday tuyg'u, hayajon mavjud bo'lmasa, hech qanday san'atkorlik, tashbeh, lutf yoki shohbayt kabi she'riy san'atlar ham she'rga jon baxshid etolmaydi, ta'sirchan qila olmaydi.

She'rda "Qalam bilan yozasan..." misrasining takrorlanishi anafora uslubini yuzaga keltiradi. Bu takror ijod jarayoning davomiyligini, insonning har qanday ruhiy holatda ham yozishga intilishini bildiradi.

"Quyosh go'yo bir xira chiroq" satri tashbeh asosida qurilgan. Bu yerda oshiqning ko'zida yor husni butun olam nuridan ustun qo'yiladi.

So'nggi bandda qo'llanilgan "yo'q", "hech qachon", "qolmas" ifodalari she'rda qo'llanilgan falsafiy mulohaza va ohangni kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Bu yerda ushbu qat'iy hukm orqali shoir o'zining she'rdagi estetik positsiyasini ko'rsatib berishga harakat qilgan.

She'rning asosiy go'yasi shundan iboratki, haqiqiy she'riyat tashqi bezaklarda emas, yurakdagi chinakam tuyg'ularda yashaydi. Qayg'u ham, hijron ham, muhabbat ham ijodga sabab bo'lishi mumkin, ammo agar yurak sovuq bo'lsa, tuyg'u o'lgan bo'sa, she'riyat ham yo'qoladi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'ri she'riyatning asl mohiyati haqidagi teran falsafiy mushohadaning badiiy ko'rinishidir. Unda inson ruhiyati bilan ijod jarayoni o'zaro chambarchas bo'lanadi. Qayg'u, hijron va muhabbat-bular she'r uchun mavzu bo'lishi mumkin, biroq she'riyatning haqiqiy manbai tirik, sezgir va haroratli yurakdir. Demak, tuyg'u bor joyda she'riyat bor; tuyg'u yo'q joyda eng go'zal so'zlar ham ma'nosiz va jonsizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Arkadevich Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, nashr yili.
2. Aleksandr Arkadevich Faynberg. She'rlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, nashr yili.
3. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.

4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
6. Rahimov B. Hozirgi zamon o‘zbek she‘riyati. – Toshkent: Fan, 2012.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
8. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>